

PISA XALQARO BAHOLASH DASTURI - TA'LIM SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA MUHIM VOSITA

Baymenova Kamshat Saparbayevna

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi assistenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada PISA xalqaro baholash dasturining bugungi kun uchun ahamiyati, ya'ni ta'lim siyosatini shakllantirish va rivojlantirishdagi muhim vosita ekanligi borasida so'z yuritiladi. Xususan, PISA tadqiqoti o'quv jarayoniga zamonaviy usullarni olib kirish, ta'lim oluvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilganligi haqida atroflicha tatbiq qilingan.

Kalit so'zlar: PISA, baholash, xalqaro tadqiqot, bilim, ko'nikma, og'zaki nutq, yozma nutq, o'qish savodxonligi, matn

O'zbekistonning PISA xalqaro dasturda faol ishtiroki bevosita yangi O'zbekiston ta'lim konsepsiyasi bilan uyg'un holda olib borilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan ta'lim islohotlarining asosiy maqsadi - xalqaro andozalarga mos, fikrlovchi, ijodiy, raqobatbardosh avlodni tarbiyalashdir [2]. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, PISA - bu faqat statistik hisobot emas, balki xalq ta'limining strategik barometri, kelajak sari yo'naltiruvchi chiroqdir. PISA xalqaro baholash dasturi - bu har bir mamlakat uchun ta'lim sifatini baholash, ta'lim siyosatini shakllantirish va rivojlantirishda muhim vositadir. O'zbekistonning bu yo'nalishdagi sa'y-harakatlari, pedagogik jamoalarning ishtiroki va islohotlarga ochiqqligi - kelajakda raqobatbardosh, bilimdon va erkin fikrlovchi avlodni yetishtirishga xizmat qiladi. PISA - bu nafaqat test, balki xalqning intellektual salohiyatini sinovdan o'tkazuvchi muhim vosita, o'quvchilarning bugungi emas, ertangi hayotga tayyorlik darajasini aniqlovchi mezondir. Zamonaviy jamiyatda ta'lim tizimining sifatini aniqlash, uning natijadorligi va global me'yorlarga mos kelishini ta'minlash har qanday davlatning ustuvor vazifalaridan biridir. Aynan shu nuqtayi nazardan qaralganda, PISA (Programme for International Student Assessment) xalqaro baholash dasturi o'zining miqyosiy qamrovi, yondashuvlar xilma-xilligi va amaliy natijaviyligi bilan jahon ta'lim tizimida strategik ahamiyat kasb etmoqda [5]. Mazkur dastur o'quvchilarning faqat bilim darajasini emas, balki hayotiy vaziyatlarda o'z bilim va ko'nikmalarini qanday tatbiq eta olish salohiyatini ham aniqlaydi. Bu esa ta'limning shakllanishida zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan muhim omil hisoblanadi.

PISA dasturining asosiy maqsadi – 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha egallagan bilimlarini real hayotiy holatlarda amaliy qo'llay olish

darajasini o'lchashdir. Bu yosh davri tanlanishining sababi, ko'pchilik mamlakatlarda o'rta ta'lim bosqichining yakunlanishiga to'g'ri kelishidir. Demakki, bu yoshdagi o'quvchilarning bilimlar sifati va ular asosida qaror qabul qilish malakalari jamiyatdagi faol ishtirokchilikning ilk bosqichini belgilaydi. Shunday ekan, PISA testlari orqali olingan natijalar nafaqat ta'lim tizimi holatini, balki butun avlodning intellektual salohiyati haqida tasavvur hosil qilish imkonini beradi. PISA dasturining eng asosiy xususiyatlaridan biri – u an'anaviy test shaklidan farqli ravishda o'quvchilarni hayotiy muammolarni tahlil qilish va ularga echim topish jarayoniga jalb etadi. Masalan, o'quvchidan shunchaki fizik qonunni eslab qolishi emas, balki bu qonun qanday real hayotiy hodisalarda qo'llanilishini tushunib yetishi, tahlil qilishi va asosli xulosa chiqarishi talab etiladi. Bu yondashuv esa ta'limni nazariy bilimlar yig'indisidan amaliy kompetensiyalarni shakllantirish maydoniga aylantiradi. Shu boisdan, PISA dasturidagi savollar shakli va mazmuni davlat ta'lim dasturlarining zamonaviylashtirilishi zaruratini yuzaga chiqaradi.

Bugungi globallashuv jarayonlarida raqobatbardosh inson kapitali yaratish har bir mamlakat uchun dolzarb vazifaga aylangan. Shu nuqtai nazardan qaralganda, PISA dasturida yuqori natijalarga erishish davlatlar uchun strategik ustuvorlik hisoblanadi. Chunki bu nafaqat xalqaro reytingdagi o'rinni aniqlaydi, balki o'sha mamlakatning ta'lim tizimi, maktab pedagogikasi va metodikasining zamonaviy talablarga mos kelish darajasini ham aks ettiradi. Masalan, so'nggi yillarda PISAda eng yuqori natijalarga ega davlatlar qatorida Finlyandiya, Singapur, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlar turibdi. Ularning umumiy xususiyati – ta'limga individual yondashuv, mustaqil fikrlashni shakllantirish va o'quvchining o'zini anglashiga yo'naltirilgan metodikalarning keng qo'llanishidir. O'zbekiston PISA dasturida ilk marotaba 2022-yilda ishtirok etdi [6]. Bu ishtirok mamlakatimizda ta'lim sifati bo'yicha xalqaro mezonlar bilan solishtirma tahlil olib borish uchun muhim imkoniyat yaratdi. Natijalar O'zbekiston ta'lim tizimida kuchli va zaif tomonlar borligini ko'rsatib berdi. Jumladan, o'qish savodxonligi va matematik fikrlashda o'quvchilarning real hayotiy muammolarga nisbatan yechim topish qobiliyati hali past darajada ekani aniqlandi. Shu bilan birga, tabiiy fanlar yo'nalishida ancha ijobiy dinamikaga ega bo'lgan maktablar ham borligi kuzatildi. Bu esa, bir tomondan, ta'lim tizimida yondashuvlarni takomillashtirish zaruratini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, mavjud ijobiy tajribalarni ommalashtirishga ehtiyoj borligini bildiradi.

PISA natijalari ta'lim sohasida islohotlar olib borishda muhim diagnostik vosita sifatida xizmat qilishi mumkin. Masalan, olingan natijalar asosida o'quv dasturlarini qayta ko'rib chiqish, o'qituvchilar tayyorlash tizimiga zamonaviy metodikalarni joriy etish, baholash mezonlarini kompetensiyalarga yo'naltirish kabi chora-tadbirlar ishlab chiqilishi mumkin. Shu bilan birga, o'quvchilarni mustaqil o'ylashga, tanqidiy fikrlashga va axborotni tahlil qilishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar sonini ko'paytirish zarurati

tug'iladi. Bu esa faqat metodika emas, balki ta'limdagi mafkura va yondashuvlarni ham tubdan yangilashni talab etadi [3]. PISA dasturi doirasida xalqaro hamkorlikning kengayishi, ta'lim bo'yicha ilg'or tajribalarni o'rganish imkoniyatini yaratadi. O'zbekistonning bu boradagi sa'y-harakatlari ayniqsa dolzarbdir. Xususan, PISA baholash mezonlariga mos keladigan o'quv materiallarini yaratish, o'quv dasturlarini xalqaro standartlarga moslashtirish va o'qituvchilarning malakasini oshirishga doir maxsus strategik rejalar ishlab chiqilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim tizimini jahon standartlariga uyg'unlashtirish yo'lidagi qat'iy qadamdir.

Yana bir muhim jihat shuki, PISA dasturi nafaqat o'quvchilarning, balki o'qituvchilarning ham bilim va yondashuvlariga ta'sir ko'rsatadi. Chunki, o'qituvchi zamonaviy bilimlarni o'rgatish bilan birga, ularni hayotga tadbiq qilish usullarini ham yetkazishi lozim. Shuning uchun PISA talablariga mos o'qituvchi kompetensiyalarini shakllantirish, ta'lim sifatini oshirishning eng muhim vositalaridan biridir. Shu nuqtai nazardan, pedagoglar malakasini oshirish kurslari, metodik seminarlar va PISAgga tayyorlov mashg'ulotlari orqali o'qituvchilarni yangi yondashuvlarga yo'naltirish kerak bo'ladi. PISA xalqaro baholash dasturi – bu shunchaki test emas, balki ta'lim tizimini rivojlantirish, o'quvchilarni hayotga tayyorlash va xalqaro maydonda raqobatbardosh inson kapitalini shakllantirishning muhim vositasidir. O'zbekistonning bu yo'ldagi qat'iy sa'y-harakatlari natijasida, yaqin kelajakda ta'lim sifatining sezilarli darajada oshishi, yosh avlodning intellektual salohiyatining yuksalishi va xalqaro reytinglardagi ijobiy o'zgarishlar kuzatilishiga ishonch bildirish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, mamlakat taraqqiyoti uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси.-Т.:“Ўзбекистон” НМИУ, 2018.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Ta'lim sifatini baholash milliy tizimini joriy etish to'g'risida qarori (2020). Toshkent
3. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi. O'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturi haqida qo'llanma.-Т.:2019.
4. PISA for development assessment and analytical framework: reading, mathematics and science © OECD 2018
5. IEA (2019). TIMSS 2019 International Results in Mathematics and Science. Amsterdam: IEA
6. World Bank (2022). The State of Global Learning Poverty: 2022 Update. Washington, DC
7. Файбуллаев З. “Ўқувчига ёдлашни эмас, фикрлашни ўргатиш керак”-эксперт PISA синовига тайёргарлик ҳақида